

HARBIY TA'LIM JARAYONIDA TASAVVUR, TAFAKKUR VA NUTQNING TUTGAN O'RNI

Kafedra boshlig'ining o'rinbosari, dotsent

Yuldashev Furqat Bekturdiyevich

Annotatsiya. Ushbu maqolada harbiy ta'lim jarayonida tasavvur, tafakkur va nutqning tutgan o'rni ko'rib chiqiladi. Tafakkur tufayli inson mikroolam va makroolam sirlariga kirib boradi, koinot va yerdagi o'zgarishlar qonuniyatlarini o'rganadi, bashariy ixtirolar alohida e'tibor beriladi.

Kalit so'zlar. *Tasavvur, tafakkur, psixologiya, xayol, analiz, klassifikatsiyalash.*

Аннотация: *В этой статье рассматривается роль воображения, мышлению и речи в военном учебном процессе. Благодаря мышлению человек осознает тайны микро и макро вселенной, исследует законов изменении вселенной и мира, обращает особое внимание на изобретении и на открытии человечеством.*

Ключевые слова: *воображении, мышлению, психология, представлять, анализ классификация.*

Abstract: *This article examines the role of imagination, thinking, and nutting in the military education process. Through thinking, man penetrates the microcosm and the secrets of the microcosm. It organizes the laws of changes in the universe and the earth, special attention is paid to human inventions.*

Key words: *imagination, thinking, psychology, fantasy, analysis.*

Xayol bilish jarayonlaridan biri bo'lib, inson faoliyatida ishtirok etadi. Xayol insonning mehnat natijasida paydo bo'lgan obrazlarni, timsollarni aks ettirish.

Fikr mulohazalar tasavvur qilish tufayli tafakkurning predmetiga aylanadi. Demak, xayol orqali kutilayotgan natija, ya'ni tasavvur obrazlari yaratiladi, go'yoki bu jarayonda ijodiy faoliyat modeli ishlab chiqiladi, g'ayrushuriy timsollar bilan yangilik boyib, to'ldirib boriladi. Sodda qilib aytganda xotira bazasidagi ma'lumotlar xayol orqali tasavvurda tiklanadi. Inson amalga oshirishi lozim bo'lgan har qanday faoliyatning mahsuli oldindan tasavvur qilinishi, bir butan shaklda ko'z o'ngiga keltirilishi shart.

Demak tasavvur va xayol tushunchalari mohiyatan bir biridan uqadar uzoq emas. Xayol tasavvurga nisbatan kengroq ma'no anglatadi.

Tasavvur xotiradagi ma'lumotlarni qayta aks ettirish, tiklash bo'lsa, xayol insonning ijodiy faoliyati bo'lib, u amaliy faoliyat boshlanmasdan turib, uning mahsulini oldindan tasavvur qilish va ularning obrazlarda aks ettirishdan iboratdir.

Harbiy faoliyatda ayrim qiyinchiliklar vujudga kelsa, ularni bartaraf qilish uchun odam o'ylanadi, fikriy obrazlarni yaratadi, ularga yangi qo'shimchalar kiritadi, xullas rejadagi ishning sifatli chiqishini, ijobiy natijasini xayol uzluksiz ravishda ta'minlab turadi. Aytaylik, bo'lajak dala mashg'ulotlari o'tkazish kerak, eng avval uning rejasi tayyorlaydi, ofitser pedagog

xayolan uning sifatli o'tishiga e'tibor beradi. Binobarin, xayol ishning har bir bosqichida bevosita ishtirok qiladi, yo'l-yo'lakay ko'rsatmalar, qo'shimchalar kiritib boradi.

Xayol bilish jarayonlari asosan xotira, idrok, ayniqsa, tafakkur bilan bevosita aloqada bo'ladi. Tafakkur jarayonida ham, xayol jarayonida ham oldindan bashorat qilish imkoniyati katta.

Xayol tafakkur predmetiga tegishli vaziyatlardagi kamchiliklarda ham u yoki bu yo'l bilan muammoli vaziyatdan chiqish imkoniyatini beradi. Ma'lumotlarning kamligi shaxsni xayol va fantaziyaga berilishiga olib keladi. Hali insoniyat uchun o'rganilmagan sohalar juda ko'p, demak, xayol uzluksiz ravishda o'z funksiyasini bajaraveradi, shuning uchun xayolning qaysi turi hukm surayotganligidan qat'i nazar u ijobiy hodisa sifatida baholanishi lozim. xayol insonning furustiratsiya, stress, affekt holatlarida asab tizimining tinchlantiradi, tana a'zolari funksiyasini tiklaydi, jismoniy jihatdan barqarorlashtiradi.

Tafakkur eng oliy darajadagi aqliy bilish jarayoni aynan tafakkur borliqdagi shunday hodisalarni tushinish imkonini beradiki, ularni na sezgi va na boshqa bilish jarayoni orqali anglab bo'ladi. Tafakkurni psixologiyadan tashqari falsafa, mantiq, kibernetika kabi fanlar ham o'rganadi. Tafakkur tufayli inson mikroolam va makroolam sirlariga kirib boradi, koinot va yerdagi o'zgarishlar qonuniyatlarini o'rganadi, bashariy ixtirolar qiladi. Xullas, tafakkur insoniyatni bugungi kibertexnologiyalar asriga boshlab keldi.

Ob'ektiv borliqdagi buyumlar va hodisalar o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlar moddiylashmagan, demakki, ularni sezgilar va idrok vositasida aks ettirib bo'lmaydi. Faqat tafakkur vositasidagina ushbu aloqalar ongda aks etadi.

Masalan, jangovar vaziyat nafaqat ma'lum predmetlardagi sifat, xususiyatlar bilan, balki, ushbu predmetlar o'rtasidagi murakkab aloqa va munosabatlar bilan ham harakterlanadi.

Bular:

- dushman kuchlarining jangovar tartibi;
- bo'linmalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va aloqalar;
- dushmanning jangovar rejalari;
- ularning yakuniy maqsadlari va hakozi.

Ushbu aloqa va munosabatlar tafakkur jarayoni vositasidagina jangchi ongida o'z aksini topadi. Sezgilar va idrok vositasida olingan ma'lumotlar qayta ishlanadi. Bu qayta ishlash murakkab jarayon bo'lib, hozirgina olingan ma'lumotlar oldingilar bilan solishtiriladi.

Tushuncha, uning tashuvchisi so'z ob'ektiv voqelikni sintez va analiz qilishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Demak, tafakkur oldingi va endi qabul qilingan ma'lumotlarni ongda qayda ishlash hosilasi bo'lib, u nutqda ifoda etiladi. Bundan xulosa shuki tafakkur va nutq birgalikda to'laqonli jarayon hisoblanadi. Shuni unutmash lozimki, aynan tafakkur insonga nutqni paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Til -fikrning namoyon bo'lish shakli, yoki, boshqacha qilib aytganda-moddiylashgan shakli demakdir.

Tushuncha - murakkab psixik tuzilma hisoblanadi. Aynan tushunchalarda predmetlardagi eng muhim xususiyatlar, sifatlar o'z aksini topadi.

Tushuncha insonning shu paytgacha voqelikni bilish jarayonidagi analiz, sintez va solishtirish natijasi bo'lgan buyum, hodisalarning eng umumiy xususiyatlarini o'zida aks ettiradi.

Bu esa inson ayni paytda qabul qilayotgan ma'lumotlarni tushunchalar vositasida analiz va sintez qilish imkoniyatini beradi.

Shuning uchun ham o'zi idrok qilayotgan predmetni so'z-tushuncha bilan atash asnosida inson ushbu predmetning mohiyatini anglab yetadi.

Ilmiy yoki amaliy vazifalarni hal etishiga ko'ra tafakkur uch turga bo'linadi: ko'rgazmali-ifodali, obrazli va so'z-mantiq.

Eng oddiy tafakkur bu ko'rgazmali-ifodali tafakkur hisoblanadi. Bu tafakkur insonga ma'lum narsalarni ko'rib, ularni amalda yaratib ko'rish imkonini beradi. Ya'ni moddiy ob'ektlarni yaratish imkonini beradi. Bu tafakkur qumdan figuralar yasab boshlagan bolalik davridayoq shakllanib boshlaydi.

Obrazli tafakkur deyarli barcha faoliyatda qo'llaniladi, xususan, ijodiy faoliyatda uning o'rni beqiyos. Ko'p hollarda texnik, badiiy va ijodkorlik sohasida, san'at sohasida bu tafakkur shakli ijobiy natija beradi.

So'z-mantiq tafakkur inson jamiyatda shakllanib nutqi rivojlanishi barobarida shakllanadi. Har bir fikr mantiqiy ketma ketlikda so'zlar tizimi – gapda ifoda etiladi. Har bir so'zning manqig'i anglangan holda ifoda etiladi.

Tashqi dunyoga xos bo'lgan aloqalar va munosabatlar har xil operatsiyalar vositasida tafakkurda o'z aksini topadi. Bunday aqliy operatsiya turlari qo'yidagilar:

- analiz;
- sintez;
- taqqoslash;
- abstraksiya(mavhumlashtirish);
- umumlashtirish;
- konkretlashtirish.

Analiz shunday aqliy jarayonki, bunda butun bir predmet yoki voqelik fikran tarkibiy qismlarga ajratilib, uning xususiyatlari, tuzilishi, sifati va o'ziga xos jihatlari tahlil etiladi. Bunga misol qilib dala o'quv mashg'ulotini rejalashtirishda uni turli bosqichlarga ajratishni aytish mumkin.

Sintez esa analizga teskari operatsiya bo'lib, uning vositasida analiz jarayonida aniqlangan predmet va hodisalar o'rtasidagi aloqadorliklar asosida alohida qismlar bir butun qilib birlashtiriladi. Ular orasida qanday aloqadorlik bor, nima ularni birlashtirib turadi, birining ikkinchisidan afzal tomonlari aniqlanadi. Analiz va sintez biri ikkinchisi bilan chambarchas bog'lik jarayon. Ish jarayonida analizdan sintezga sintezdan analizga o'tib turiladi. Bu ob'ektni alohida qismlarini ham , ularni birgalikdagi holatini ham mukammal bilishga imkon beradi.

Qiyoslash – ma'lum narsalarni o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash maqsadida noma'lumlari bilan taqqoslashdir. Aynan taqqoslash yordamida sub'ekt o'rganayotgan

ob'ektini yaxshiroq tasavvur qiladi. Vzvodda o'qish, xizmat va harbiy intizomni mustahkamlash yakunlarini sarhisob qilishda ushbu operatsiyadan foydalaniladi. Ushbu usul orqali qaysi guruh yoki harbiy xizmatchi ilg'or yoki aksincha, qoloq ekanligi aniqlanadi.

Abstraksiyalash (mavhumlashtirish) - narsa va hodisalarning umumiy bor belgilarini, xususiyat yoki sifatlarini fikran ajratib olish operatsiyasidir. Bunda ajratib olingan asosiy jihatlar tahlil etiladi.

Umumlashtirish - bu ma'lum sinfga xos ob'ektlarning umumiy belgilari asosida o'rganish imkonidir. Umumlashtirish noma'lum ob'ektni ma'lum ob'ekt bilan o'xshash jihatlari orqali o'rganish operatsiyasidir. Masalan, avtomat, to'pponcha, pulemyot kabilarga xos belgilar «qurol» tushunchasi bilan umumlashtiriladi.

Konkretlashtirish(muayyanlashtirish) - umumiy, mavhum belgi yoki xususiyatlarni yakka ob'ektlarga tatbiq qilish bilan ifodalanadigan aqliy operatsiya. Bunda umumiy belgi aniq predmet asosida konkretlashtiriladi.

Klassifikatsiyalash – bu jarayonda narsalarning o'xshash va farkli jihatlariga qarab turkumlarga ajratiladi. Barcha sohada klasifikatsiyalash orqali artib o'rnatiladi. Hatto kundalik turmushda ham. Harbiy pedagogik faoliyatda ham dars rejalari klassifikatsiya asosida taqsimlanadi.

Tizimlashtirish - bu jarayonda fikr narsa va hodisalarni makon va zamonda ma'lum bir tartibda joylashtiradi. Ta'limda o'zlashtiriladigan bilimlarni tizimga solish juda muhim sanaladi. Ayniqsa, harbiy ta'lim jarayonida oddiydan murakkabga qarab tizimlashtirish, bosqichma-bosqich harbiy bilim va ko'nikmalarni egallash va doimiy jangovar shaylikni saqlab turish juda muhim sanaladi.

Xullas, xohlasak xohlamasak bizning faoliyatimiz davomida tafakkur operatsiyalari jarayoni kechaveradi. Ongli insonda bu jarayonlar individual o'ziga xos ravishda kechadi.

Sitseron «insonlar bir-birlaridan o'zishi kerak bo'lgan soha-bu insonni hayvondan farqlovchi narsa, ya'ni nutqdir» degan edi. Buyuk mutafakkar Alisher Navoiy ham “Insonni so'z ayladi judo hayvondin, Bilgilki, guhari sharifroq yo'q ondin” deb ta'kidlagan.

Ma'lumki insonning ruhiy olami va psixikasiga ta'sir etuvchi to'rt asosiy unsur bor. Bular : jamiyat, madaniyat, mafkura, nutq. Asos sifatida jamiyat tursa, qolganlar unsurlar jamiyatda paydo bo'ladi va rivojlanadi. O'z navbati nutq jamiyatda tug'ilib, har bir insonning madaniyati va mafkurasi rivojlanishiga asosiy rol o'ynaydi. Inson ruhiy olami va psixikasining rivojlanishiga sabab bo'ladigan nutq va til hisoblanadi. Til nutqning bir ko'rinishi – eng oliy taraqqiy etgan ko'rinishi hisoblanadi.

Til so'z belgilaridan iborat bo'lib, odamlar tomonidan ichki va tashqi olamdagi narsa va hodisalarni bildiradi. Til insonlarning aloqa vositasi, fikr ifodasi. Til orqali ma'lumotlar tarqatiladi keyingi avlodlarga yetkaziladi. Tilning paydo bo'lish munosabati bilan har bir alohida shaxs jamiyatining ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti jarayonida to'plagan tajribalaridan foydalanish imkoniyati tug'iladi. Xuddi shu boisdan til odamga ko'pchilik hissiy va intellektual ta'sirlar hamda taassurotlar to'g'risida o'ziga o'zi hisobot berish imkoniyatini yaratadi. Inson til yordami bilan boshqa odamlarga o'tmish, hozirgi zamon va kelajakka oid narsalar, voqelik

yuzasidan axborot, xabar, ma'lumot berishi ularga ijtimoiy tajriba mohiyati ko'nikma hamda malakalarni o'tkazishi, uzatishi mumkin.

Tilning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

a) til yashashning vositasi, ijtimoiy tajribani avloddan avlodga uzatish, berish va o'zlashtirish quroli tarzida vujudga keladi (avlodlar ota-onalar, o'qituvchilar va murabbiylar);

b) til vosita yoki kommunikatsiya usuli, hatto odamlarning xatti-harakatlarini boshqaruvchi qurol sifatida namoyon bo'ladi (masalan: "Leksiya bo'lmaydi", "Bugun bayram" – ta'sir qilishdan, ta'sir o'tkazishdan iboratdir);

v) tilning muhim funksiyalaridan yana bittasi – intellektual faoliyatning quroli sifatida xizmat qilishdir (muammoli vaziyat mohiyatini tushunish, yechishni rejalashtirish, ijro etish, maqsad bilan solishtirish).

Inson dunyoga kelishi bilan eshitayotgan so'zlari ta'sirida ulg'ayadi. Bola qancha ko'p shirin gaplar eshitsa, shunga loyiq unda nutq va til rivojlanadi. Agar qo'pol muomala ko'rsa, uning tarbiyasi, nutqi ham shunga yarasha bo'ladi. Shveysar psixologi J. Piaje ta'kidlaganidek, insonda dastavval egotsentrik nutq rivojlanadi keyin esa u ijtimoiylik kasb etadi.

Nutq odatda og'zaki va yozma turkumga bo'linadi, ammo verbal va noverbal deb ajratish to'g'riroq bo'ladi.

Genetik kelib chiqish jihatidan noverbal nutq birlamchi hisoblanadi, chunki insonning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davrida dastavval tovushsiz, so'zsiz nutq turlarini paydo bo'lgan bo'lib, u o'z ichiga shaxs kamolotining yirik sanasini qamrab olgandir. Insoniyatda nutqning hozirgi zamon avlodiga xos artikulyatsion apparati paydo bo'lgunga qadar, imo-ishora negiziga qurilgan. Ma'lumki, qadimgi ajdodlarimizning nutqi va nutq faoliyati hozirgi zamon kishilarida qanday funksiyani bajarayotgan bo'lsa, o'sha davrda ham xuddi shunday vazifani ijro etgan. U davrlarda axborotlar, ma'lumotlar ko'lami tor bo'lganligi tufayli insonlar noverbal nutqdan ko'p davrlar muvaffaqiyatli foydalanib kelganlar. Avlodlar tarbiyasi ma'lumotlar uzatish noverbal nutq orqali amalga oshirilgan, ijtimoiy va xususiy (shaxsiy) fikr uzatish hamda qabul qilish ana shu tariqa namoyon bo'lgan, tobora takomillashib borgan.

Noverbal nutq turini shartli ravishda quyidagi ko'rinishlarga ajratish mumkin:

1. Imo-ishora.
2. Mimika.
3. Pantomimika.
4. Exologik, ya'ni aks sado.
5. Daktilogik (barmoq nutqi).

Verbal nutq tovush apparatlari rivojlanishi natijasida paydo bo'lgan. Uni shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1) og'zaki, 2) yozma, 3) monologik, 4) poliologik, 5) tashqi, 6) ichki, 7) ekspressiv, 8) impressiv, 9) lakonik (qatra, yig'iq), 10) epik (yoyiq), 11) affektiv (jahl holatidagi).

Pauza, mantiqiy urg'u, temp, tembr, chastota, ritmika va boshqa tashkiliy qismlar hamda mexanizmlarni o'zida mujassamlashtirgan, tilning barcha qoidalari, qonunlari, shartli belgilar sifatida xizmat qilishga asoslanuvchi nutq turi og'zaki nutq deb ataladi.

Insoniyat tarixining sivilizatsiyalik bosqichiga o'sib o'tishi davridagi e'tiborga yozma nutq paydo bo'la boshlagan va hozirgacha u o'z rivojlanishida davom etmoqda.

Yozma nutq o'z navbatida quyidagi tarkiblardan tashkil topadi:

- a) monologik (drama);
- b) dialogik (badiiy asar janrlarida);
- v) ichki;
- g) lakonik (yig'iq, qatra);
- d) epik (yoyiq, yirik roman, qissa va boshqalar).

Harbiy pedagog faoliyatida yuqorida sanalgan nutq turlarining deyarli hammasidan foydalanish mumkin. Nutqning ta'lim berish jarayonidagi roli beqiyosdir. Mavzu yoritilayotganda o'qituvchining, kursantning nutqi o'z-o'zidan psixologik ta'sir ko'rsatadi. Tinglovchilar fikrini jamlash, ularda qiziqish uyg'otishda nutq, til, uslub katta rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2020.
2. Mirziyoev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. // Vatanparvar, 2016 yil 16 dekabr.
3. Mirziyoev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi. // Vatanparvar, 2017 yil 14 yanvar.
4. Mirziyoev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
6. Arastu. Axloqi kabir. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
7. Маклаков А.Г. Общая психология. Учеб. – СПб.: Питер.: 2010.
8. Марцинковская Т.Д., Григорович Л.А. Психология и педагогика. Учебник. – М.: Проспект, 2010.
9. Маклаков А.Г. Общая психология: Учебник для вузов. – СПб.: Питер, 2008.
10. Немов Р.С. Психология: Учебник. – М.: Выс. образ., 2008.
11. Сатиб-Алдиев А.А. Ҳарбий педагогика. Ўқув қўлланма. Тошкент: 2005.